



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIBLIGI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA
JAMOAT SALOMATLIGI XIZMATI**

SANITARIYA, GIGIYENA VA KASB KASALLIKLARI ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI

**SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIKNI
TA'MINLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA
QILISHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ANJUMANNING

TEZISLAR TO'PLAMI

**Tibbiyot fanlari doktori, professor
R.T. KAMILOVA ning
umumiy tahririyati ostida**

Toshkent - 2022

<i>Тургунов С.Т., Нуруллаев Ё.Э.</i> Қорақалпоғистон мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний ва биологик ривожланишидаги бузилишларни эрта аниқлаш	95
<i>Туркманбоева А.Т., Файзибоев С.С.</i> Рахитдан кейинги асоратлар мавжуд бўлган болалар овқат рационидаги микронутриентлар таҳлили	96
<i>Хамракулова М.А., Фатхуллаев Ш.Ш., Мирджураев Э.М., Джураева Х.М.</i> Состояние периферического кровообращения при вибрационной болезни	97
<i>Фатхуллаев Ш.Ш.</i> Реоэнцефалографические исследования вибрационной болезни	99
<i>Худайберганова А.А., Утебаев Б.А.</i> COVID-19 дан кейинги даврда мактаб ўқувчиларида гигиеник кўникмаларни шакллантиришнинг тиббий-психологик жиҳатлари	101
<i>Shayxova G.I., Abdullaeva D.</i> The problem of nutrition in food allergy	103
<i>Shayxova M.I., Ganiyeva D.K.</i> Erta yoshda ovqatlantirish turiga ko'ra bolalarning kasallanishini o'rganish	104
<i>Шайхова Г.И., Саидова Г.Т.</i> Климакс даврдаги аёллар овқатланишининг асосий қоидалари	105
<i>Шерқўзиева Г.Ф., Аллаярова Г.А., Оразбаева Ш.Е.</i> Шаҳар атмосфера ҳавосини автотранспорт чиқиндиларидан муҳофазалаш ...	106
<i>Шукуров А.Н.</i> Укрепление национального потенциала для устойчивой деятельности Кодекс Алиментариус в Узбекистане	107
<i>Элинская О.Л.</i> Оценка острой токсичности сусального пищевого золота и сусального пищевого серебра	108

and fruits play an important role in the development of food allergies in older children and adults. In this case, as a rule, certain proteins of fruits, vegetables and nuts act as the main antigens, an allergic reaction to which is often caused by preliminary sensitization to the pollen of some plants.

Conclusions. When selecting an elimination diet, the frequent presence of polyvalent sensitization, the rare presence of allergies to one food product, the formation of cross-allergic reactions, the frequent presence of latent allergens in finished food products are the main difficulties. In misdiagnosed food allergies, unnecessary food exclusion leads to a lack of essential nutrients, especially in children and adolescents. Timely diagnostics, knowledge of the characteristics of food allergens, depending on thermal stability and an individual approach when choosing an elimination diet prevents complications of food allergies.

ERTA YOSHDA OVQATLANTIRISH TURIGA KO'RA BOLALARNING KASALLANISHINI O'RGANISH

Shayxova M.I., Ganiyeva D.K.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Kirish. Hayotining birinchi yilida ovqatlantirish turining bolalar salomatligiga ta'sirini baholash sog'liqni saqlash amaliyotining dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hayotining birinchi yilida yuzaga kelgan oziqlanishning buzilishi keyinchalik bolalar salomatligida tiklanmaydigan jiddiy o'zgarishlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Maqsad: Hayotining birinchi yilida ovqatlantirish turiga ko'ra katta yoshdagi bolalarning kasallanishini o'rganish.

Tadqiqot usullari va materiallari. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar asosida erta yoshda ovqatlantirishning turiga qarab maktab yoshidagi bolalarning salomatligi taxlil qilindi. Bolalar ikki guruxga ajratilgan. Birinchi guruxni 8 oydan ortiq istisnosiz ko'krak suti bilan ovqatlantirilgan bolalar, ikkinchi guruxni erta sun'iy ovqatlantirishga o'tkazilgan bolalar tashkil qilgan.

Natija va muhokamalar. Birinchi guruxdagi bolalarga nisbatan, erta sun'iy ovqatlantirishga o'tkazilgan ikkinchi guruxdagi bolalarning ko'pchiligida nafas a'zolari patologiyalari aniqlangan, jumladan bronxial astma 2,2 baravar, surunkali bronxitlar 3,5 baravar, pnevmoniyalar 2,2 baravar ko'p uchragan. Ko'krak suti bilan emizib boqilgan bolalarga nisbatan, sun'iy ovqatlantirilgan ikkinchi guruxdagi bolalarda nafas a'zolari patologiyasidan keyin oshqozon-ichak trakti patologiyalari bilan bog'liq kasalliklar ikkinchi o'rinni egallagan. Jumladan surunkali gastrit 5,8 baravar, o't chiqarish yo'llari diskineziyasi 4,2 baravar, oshqozonning funksional buzilishi 6 baravar, semizlikning I–II darajasi 5 baravar ko'p uchragan. Katta yoshda ko'p uchragan nafas a'zolari va ovqat hazm qilish kasalliklari rivojlanishining xavf omillari taxlil qilinganida homiladorlikning

patologik kechishi (48,3%), surunkali infeksiya o'choqlarining (38,5%) mavjudligi, atopik dermatit (34,7%), erta sun'iy ovqatlantirishga (22,1%) o'tkazish yetakchi o'rinni egallagan.

Xulosalar: Shunday qilib, hayotining birinchi yilida sun'iy ovqatlantirishda bo'lgan bolalar katta bo'lganida nafas a'zolari va ovqat hazm qilishning surunkali patologiyalariga ega bo'lishi ehtimoli ko'proq. Surunkali jarayonlarni shakllantiruvchi omil sifatida erta sun'iy ovqatlantirish bo'yicha olingan ma'lumotlarni mahalliy shifokorlar hisobga olishlari lozim.

КЛИМАКС ДАВРДАГИ АЁЛЛАР ОВҚАТЛАНИШИНИНГ АСОСИЙ ҚОИДАЛАРИ

Шайхова Г.И., Саидова Г.Т.

Тошкент тиббиёт академияси

Гиппократ замонларидан бери ҳар қандай ихтисосликдаги амалиётчи шифокорнинг билим хазинасида овқатланиш асосий ўринлардан бирини эгаллаб келган. Соғлом, оқилона овқатланиш айна пайтда умрни узайтирувчи ҳамда кўпгина касалликларнинг олдини олишдаги асосий омиллардан биридир. Яқин-яқинларгача очик гапирилмаган климакс ўтган асрнинг 1990-йилларида аёллар саломатлигига даҳлдор энг долзарб масалалардан бири бўлган. Климактерик даврда аёлнинг соғлиғи кўп жиҳатдан унинг қандай овқатланишига боғлиқдир. Климактерик даврдаги аёллар рационидида оқсил етарли миқдорда бўлмоғи лозим.

Аёллар рационидида кальций ва фосфор манбалари, энг аввало, сут ва сут маҳсулотлари албатта иштирок этиши лозим. Бунда шуни ҳам эътиборда тутиш керакки, сутнинг ёғлилиги қанчалик паст бўлса, унда кальций шунчалик кўп бўлади. Ёғни ҳаддан ташқари ортиқ истеъмол қилиш семизликка, атеросклерозга, моддалар алмашинуви ва юрак-томирлар тизими функцияси бузилишига олиб келиши мумкин. 50 ёшдан ошган аёллар овқатланишида ёғнинг физиологик меъёри – 65-70 граммдир. Бундан ташқари, тайёр гўштли маҳсулотлар гўзал жинс вакилларининг дастурхонида тансиқ таом сифатида, яъни жуда оз миқдорда бўлиши лозим. Аёллар овқатланиши тўлақонли бўлиши ва барча озуқа моддалари – оқсиллар, ёғлар, углеводлар, витаминлар ва минерал моддаларни етарли миқдорда қамраб олиши зарур. Озуқа моддалари мувозанатлаштирилган нисбатда бўлиши керак, аммо рационнинг қувватий қийматини бироз пасайтириш, овқатланишда углеводлар ва ёғларни камайтириш, ҳайвон ёғлари ва бошқа холестерин манбалари истеъмолини камайтиришни талаб қилувчи алмашинув жараёнлари ўзгаришларини ҳисобга олиш зарур. Аёлларнинг овқат рационидида сут ва сут маҳсулотлари, турли балиқ ва денгиз маҳсулотлари, гўшт, тухум, турли ёрмалар, овқатни хуштаъм қилувчи турли зираворлар, нон (йирик тортилган ундан бўлгани маъқул) албатта бўлиши керак.